

UDK. 372.22:371.03

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA EKOPEDAGOGIK TASHXIS

L.A.Muxtarova – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
Termiz davlat pedagoika instituti

Tavanch so'zlar: ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, ekologik xavfsizlik, atrof-muhit, model, kognitiv komponent, ijodiy-refleksiv, tabiiy fanlar, tabiiy savodxonlik.

Ключевые слова: экологическое образование, экологическая культура, экологическая безопасность, окружающая среда, модель, познавательный компонент, творчески-рефлексивный, естествознание, естественная грамотность.

Key words: environmental education, environmental culture, environmental safety, environment, model, cognitive component, creative-reflective, natural science, natural literacy.

Kirish. Jahonda o'quvchilarning ekologik savodxonligini rivojlantirish, tabiiy-ilmiy fanlarni o'qitishning integrativ modellarini ta'lim amaliyotiga keng joriy etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit bo'yicha 2021 yildagi 5-Sammit UNEP (United Nations Of Environment Programme) dasturida: tabiatga bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik beqaror yondashuvlarni o'zgartirmaslik, global ekologik xavflarni yuzaga keltirib, mavjud muammolarni kuchayishiga yangi sabab bo'lishi ta'kidlandi. Xalqaro ta'lim zamonaviy kontseptsiyasida ekologik muammolarni yaxlit ko'ra oluvchi, tahlil etuvchi, immersiv, tizimli va ijodiy fikrlovchi, metakompetentli mutaxassislar tashkil etishi ta'kidlangan. Bu borada, jahondagi "Kelajak dunyo ta'lim federatsiyasi"-*"World Futures Studies Federation"* dasturida "Environmental Education Link", Londondagi "Education For Our Common Future" barqaror rivojlanishning ta'limiy portali (GDLN) kabilar ekologik ta'limning rivoji uchun samarali xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Atrof-muhit, aholi sog'ligi va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olish" [1] dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Binobarin, ekologiyani ko'p tarmoqli soha sifatida baholash, ekologiyaning axloqiy mohiyati va zamonaviy mazmuni, innovatsion tafakkur yuritish va yangicha yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ekologik ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamiyat va inson koevolutsiyasiga doir ilmiy tasavvurlari natijasida fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga doir o'quv materiallarini tanlash asosida ta'lim sifatini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish muhim. Shu jihatdan ona sayyora muhitini bulg'ayotgan ekologik xavf, "Tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarining buzilishi yer yuzidagi barcha xalqlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Xususan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e'tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutishimiz zarur" [2] – deb aytgan fikrlari yosh avlod ekologik madaniyatini shakllantirishning dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyo xalqlari taraqqiyotining hozirgi bosqichida insoniyat uchun ekologik xavfsiz makonda yashash masalasi tobora dolzarb muammoga aylanib borayotgan ayni vaqtda ona -zaminimiz muhitini bulg'ayotgan ekologik xavf, "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarining buzilishi barchamizni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda.

Jahon ilm-fani integratsiyalashuvi dunyoda ekologik xavfsizlikni barqarorlashtirish borasida tajribalar almashinuvi imkonini bermoqda. Jumladan, John Pezzey inson va atrof-muhit xavfsizligiga izoh berib: "So'nggi yillar ichida atrof-muhit zaxiralarining insoniyat sivilizatsiyasini qo'llab-quvvatlash qobiliyati haqida keng tarqalgan tashvish to'la qini kuzatildi. "Barqaror rivojlanish", "barqaror o'sish" yoki shunchaki "barqarorlik" masalalari global muammoga aylandi. Bu insonning ijtimoiy va atrof-

muhit xulq-atvorini qo'zg'atuvchi ba'zi kuchlar qanchalik chuqur ekanligini ko'rsatadi va bizni uni qanchalik o'zgartirish mumkinligi hamda o'zgarishi kerakligi to'g'risida real qarashga majbur qiladi" deb tashvishlanadi [3:322]. Bu borada ko'plab xorijlik olimlarning qarashlari mavjud bo'lib, xususan, ekologik ta'limning mazmuni va mohiyati, tuzilishi C.S.Haugen, atrof-muhit muhofazasining o'ziga xos jihatlari Hsing Yun, sayyoramizda hayot kurtaklari va uning davomiyligi Bastedo Jamie Shield, Bioreginalizm, madaniyat va ekologiya sohasiga oid global muammolar Brennan Andrew, kontseptual ekologik tadqiqotlar metodologiyasi masalalari R.Harding, tabiiy-ilmiy bilimlar integratsiyasi D.Coste va J.Trimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Ekologik xavfsizlik madaniyati o'quvchining hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boradigan ekopedagogik faoliyati bo'lib, uni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirishda shaxsiy fazilatlar bilan bir qatorda, hosil bo'lgan ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar asosiy rol o'ynaydi. Kulturologik-madaniy yondashuv biz tomonimizdan o'quvchining ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish mexanizmi sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda ekopedagogik tashxis ikki xil yondoshuv asosida qaralishi kerak. Birinchidan, atrof-muhitning insonga qay darajada ta'sir ko'rsa-tishini baholash. Ikkinchidan, o'quvchi tomonidan egallangan fazilat va sifatlarining namoyon qilinishi qay darajada atrof-muhitning o'zgarishiga ta'sir etishini aniqlash.

Motivatsiyali komponentni ishlab chiqishda birinchi navbatda biz o'quvchi shaxsida "xavfsizlik" tushunchasini anglashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishni shakllantirish muhim deb topdik. Mazkur komponent o'quvchi faoliyatini rejalashtirish, qunt bilan o'qish, ehtiyoj, qiziq'uvchanlik va shaxsiy munosabatlar, bilim sifatini oshirishda mustaqil o'qish, qadriyatlar va shaxsiy qarashlarni o'z ichiga olib jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda shakllangan e'tiqodga asoslangan mas'uliyat, burch, vijdonlilik, zo'raonlik qilmaslik, tabiatning yaxlitligini saqlash, har birimizni tabiatning ajralmas qismi ekanligimizni his qilish, xavf-xatarlardan himoya qilish, atrof-muhitdagi tahdidlardan himoyalash, hayotga muhabbat, kelajak avlodlar uchun tabiatni asrash kabi e'tiqodlarni tarbiyalashga asoslanadi.

Kognitiv (kompetentlikka asoslangan) komponent o'quvchining ekologik mazmundagi o'quv topshiriqlarini anglash, qo'llash va mulohaza yuritish ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bilishga oid kognitiv sohada o'quvchi o'quv materialini tushunish, yodga olish, xotirlash, tasvirlash hamda hayot bilan bog'lab amaliy misollar keltirish ko'nikmalari o'stiriladi. Qo'llashga oid kognitiv sohada o'quvchilar o'quv materialini taqqoslaydi, tasniflaydi, bog'liqlikni aniqlashtiradi, ma'lumotni talqin qiladi, izohlaydi, tabiiy modellardan samarali foydalanadi. Mulohaza yuritishga oid kognitiv sohada o'quv materialini tahlil qilish, sintezlash, muammoli savollar qo'yish, g'oya va farazlarni ilgari surish, baholash, asoslash, xulosalash, bashoratlash, umumlashtirish, kichik tadqiqotchilik va loyihalash malaka va kompetentsiyalari shakllantiriladi. Bunda o'quvchilar

uchun xavfsiz muhit va yashash sharoitlari mavjudligini ilmiy bilish, favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilishni o'rganishadi.

Modelning kognitiv komponenti uslubiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Biz ekologik xavfsizlik madaniyatining quyidagi jihatlari ajratib ko'rsatdik: aksiologik, kulturologik (madaniy), vaziyat bilan bog'liq muammoli, faoliyatga asoslangan [6]. Mazkur uslubiy yondashuvlarga mos tarzda ekopedagogik ta'lim maqsadi aniqlandi hamda o'quvchi shaxsining ekopedagogik faoliyatidan kelib chiqib aniq vazifalar belgilandi.

Ekologik madaniyat kulturologik (madaniy) yondashuvga ustuvorlik berish asosida shakllantirildi. Mazkur yondashuvda o'quvchilarni tahliliy faoliyatga undovchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, ekopedagogik muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli vaziyatlar yechimini topish hamda ularni hal qilish jarayonida o'quvchi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikma va malakalarni, asosiy hayotiy kompetentsiyalarni egallashi uchun qulay vaziyatlar vujudga keldi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv tajriba-sinov jarayonida tashkil etilgan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda yuzaga kelgan o'qitish muammolarini tahlil qilish va bartaraf etishga yo'naltirildi. O'quvchilarda ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan o'quv faoliyatiga yuqori darajada qiziqishni shakllantirish, o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar rivojlantirildi.

Kognitiv komponent xavfsiz ekotizimlar, asosan, atrof-muhit holatini tahlil qilish, ularni tartibga solish mexanizmlari, ekologik xavfsizlik muammolarini ilmiy asoslash bo'yicha didaktik materiallar orqali ishlab chiqilgan. Shuningdek, o'quvchilarning mehnat natijalaridan qoniqish, yon-atrofdagilarga hamdardlik, atrof-muhit muhofazasini saqlash va tiklash bo'yicha ijodiy ekologik loyihalarda faol ishtirok etish istagi, hamda ekologik madaniyatni tarbiyalash mazkur mezonning asosiy ko'rsatkichidir. Ushbu mezonning g'oyasi fanlararo o'quv dasturlari asosida o'quvchilarning ekologik bilimlarni izchil va har tomonlama egallashiga qaratilgan.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq xavfsizlik madaniyatini o'quv jarayonida aks ettirish, o'quvchilarda xavfsiz ekologik ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishning muhim jihati – tabiat bilan uyg'unlikda yashash, mavjud ekologik sharoitlarni e'zozlash, tabiiy muhitni muhofaza qilish, to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiena qoidalarini o'rganish, sog'lom ekologik xulq-atvor madaniyati "Xavfsiz sog'lom ko'nikmalar" tashnis materialini o'zlashtirish orqali tahlil qilindi.

Amaliy-faoliyatli komponent asosida o'quvchida sog'lom turmush tarziga amal qilish, kundalik tartib, to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiena, sog'lom ovqatlanish, zararli odatlarni tark etish kabi fazilatlar va sifatlarining namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Mazkur mezon bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi o'zining bilim darajasini anglagan holda o'z-o'zini baholay oladi, rivojlantiradi, nazorat qiladi, yo'naltiradi. Bu jarayon o'quvchini tabaqaga ajratmaydi, balki o'z bilim darajasini anglashga ko'maklashadi. O'quvchi o'zining kundalik faoliyati davomida sog'lom va xavfsiz ovqatlanish qoidalariga rioya qilishi va sog'lom turmush tarzi uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak. Bugun har birimiz nafas olayotgan havo, ichayotgan suv, atrof-muhit musaffoligi dunyodagi har bir tirik mavjudotning sog'lom turmush tarzi va yashashiga bog'liq.

Amaliy-faoliyatli komponent asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida amaliy kompetentsiyalar shakllantiriladi. O'quvchi shaxsiy gigienaga rioya qiladi, sog'lom turmush tarziga mos hayot-faoliyatga moslashadi, to'g'ri ovqatlanish, zilzila ro'y berganda to'g'ri harakatlanish qoidalarini amalda ko'rsatadi, o'z yashash joyidagi ob-havoni kuzatadi va undagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumot to'playdi va xulosa qiladi, turli jihozlar (qog'oz va plastik idish) yordamida tovushlarni uzatishni, moddani fizik usulda o'zgartirish va buyumlarning elektrlanishiga doir tajribalar o'tkazadi. Natijada o'quvchi tomonidan ekologik mazmundagi mavzularni o'zlashtirish samaradorligi oshadi.

Qayd qilingan mazkur mezon o'quvchining madaniy qiyofasini ekologik tavsifdagi ong va idrok oqimi vositasida o'z xulq-atvorini nazorat qilish, boshqarish, tarbiyalash, rivojlantirish darajasigacha yetkazadi. Mazkur mezon o'quvchining ekologik bilimlarni egallashdagi tashabbuskorligi, atrof-muhitni asrab-avaylashi, o'qishga qiziqishi, aql-zakovati, ijodkorligi bilan tavsiflanadi.

Xulosa. Bizningcha, hozirgi kunda yoshlarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi tufayli, favqulodda sodir bo'layotgan ekologik hodisalarga insoniyatni qanday yo'l tutishni bilmaslik evaziga, atrof-muhit ekologiyasidagi nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga tegishli xulosalar chiqarishga chorlovchi omillarda ikkilanamiz. Ular odamlarni sergaklantirishi zarur. Buning uchun boshlang'ich sinfda o'quvchilarga ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga oid tushunchalarni tarkib toptirish va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabat masalasi insoniyat hayotining ajralmas bir qismi sifatida azaldan xalqimiz turmush tarziga chuqur singib ketgan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son farmoni. –Toshkent: 2019-yil 30 oktyabr.
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. [PF-4947-son 07.02.2017. \(lex.uz\)](#)
 3. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash. «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha 2022 yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishigi nutqi. / "Xalq so'zi". 3-fevral 2022-vil № 25 (8087)
 4. Stewart. Frances 2004. "Development and Security", Centre for Research on Inequality, Human Security, and Ethnicity (CRISE), Working Paper 3, London: University of Oxford.
 5. Pezzey John. Sustainability: An Interdisciplinary Guide Environmental The White Horse Press, Cambridge, UK. Values 1.1992: - Pp.321-62.
 6. Muxtarova L.A. Boshlang'ich ta'limda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning metodologik asoslari // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси илмий-назарий журналі. 2021, № 12. 657-662-b.
- REZYUME.** Mazkur maqolada xavfsizlik mezonlari asosida ekologik madaniyat samaradorligini tadqiq qilishga nazariy jihatdan yondashish asoslab berilgan. Xususan, har bir o'quvchida ekologik xavfsizlik madaniyatini yuksaltirishning zamonaviy tendentsiyalarini ishlab chiqish, ekologik xavfsizligini ta'minlash usul-vositalarini aniqlash va ularni takomillashtirish bilan bog'liq masalalarga oid fikr-mulohazalar keltirilgan. Zamonaviy ekologik ta'limning yetakchi vazifasi sifatida shaxsni ekologik fikrlashga o'rgatish tizimini yaratish va o'quvchilarga ekopedagogik ta'sir ko'rsatish orqali ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari tadqiqot jarayonida aniqlangan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье обоснован теоретический подход к изучению эффективности экологической культуры на основе критериев безопасности. В частности, изложены мнения по вопросам, связанным с развитием современных тенденций повышения культуры экологической безопасности у каждого школьника, выявлением методов обеспечения экологической безопасности и их совершенствованием. В качестве ведущей задачи современного экологического образования в процессе

исследования были определены компоненты, критерии и показатели создания системы обучения детей экологическому мышлению и создания эколого-педагогического воздействия на учащихся.

SUMMARY. This article substantiates a theoretical approach to studying the effectiveness of environmental culture based on safety criteria. In particular, opinions are presented on issues related to the development of modern trends in increasing the culture of environmental safety in every schoolchild, identifying methods for ensuring environmental safety and their improvement. As the leading task of modern environmental education, the research process identified the components, criteria and indicators for creating a system for teaching children environmental thinking and creating an environmental and pedagogical impact on students.

PEDAGOGIKA FANINING TA'LIM MAZMUNI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Sh.N.Mustafayev – *pedagogika fanlari doktori*

Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: modernizatsiya, pedagogik amaliyot, pedagogik mahorat, pedagogik muhandislik, pedagogik texnologiya, pedagogik qonuniyatlar, bilim, ko'nikma, qobiliyat, kompetentsiya, pedotsentrik, sotsiotsentrik, ta'lim turi, ta'lim ma'nosi.

Ключевые слова: модернизация, педагогическая практика, педагогическое мастерство, педагогическое проектирование, педагогическая технология, педагогические закономерности, знания, навыки, способности, компетенции, педоцентрический, социоцентрический, вид образования, смысл образования.

Key words: modernization, pedagogical practice, pedagogical skills, pedagogical engineering, pedagogical technology, pedagogical principles, knowledge, skill, ability, competence, pedocentric, sociocentric, type of education, meaning of education.

Kirish. Bugun jahonda ro'y berayotgan shiddatli globallashuv jarayonida aynan pedagogika fanining ahamiyati juda oshib bormoqda. Globallashuv, modernizatsiya bugungi hayotimizga yangi tushunchalarni, texnologiyalarni olib kirish bilan birgalikda jarayonlar yangilanib, keskin zamonaviylashuv davom etmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirildi, ushbu sohadagi bir qator respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekistonda so'nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi [1].

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ijobiy amaliyotni 2023/2024 o'quv yilidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko'zda tutildi. Shuningdek, oliy ta'limda qamrov darajasini 50 foizga, nodavlat OTMLar sonini kamida 50 taga yetkazish belgilab olindi [2].

Yuqorida keltirilgan islohotlarni yanada mustahkamlash va bardavom bo'lishini ta'minlash, konstitutsiyaviy qonunchilikda yoshlarning uzluksiz ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatlarini mustahkamlashni taqozo etmoqda.

Ta'lim sohasida davlatning alohida majburiyatlari sifatida imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan aniq mexanizmlari nazarda tutilgan bo'lib, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi haqida ijtimoiy norma kiritilmoqda.

Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish uchun ta'lim berish sifatiga e'tibor berish va ushbu sohada ishlashning jozibadorligini doimiy ravishda oshirish zarur. Zero, millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi ilm-fan sirlari, ma'naviy va madaniy merosni yoshlarga yetkazishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Demak, o'qituvchilarga o'zlarining salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni ijtimoiy, huquqiy, moddiy qo'llab-quvvatlash darkor.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni

tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash maqsadida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tahlil qilish, o'qituvchilarning bilimi va qiziqishiga mos bo'lgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini joriy qilish, mazkur jarayonga nodavlat va xalqaro tashkilotlarni jalb qilish, pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning ta'lim dasturlarini umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quv dasturlari bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilar rivojlanishiga psixologik-pedagogik jihatdan tashxis qo'yish, ularning qobiliyati va moyilliklarini aniqlash bo'yicha zamonaviy usullarini joriy qilish hamda yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish faoliyatini takomillashtirish kabi muhim vazifalar belgilab berildi [3].

Asosiy qism. Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog'liq. Shu bois, ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq."

Inson — ma'naviy kamolot imkoniyatiga ega bo'lgan moddiy mavjudot hisoblanadi. Pedagogika ilmi insonni tarbiyalash, shakllantirish ilmidir. Pedagog esa insonni, jamiyatni, davlatni taqdirini hal qiluvchi shaxsdir. Insonning ta'lim va tarbiyalanganligi darajasi qanday bo'lsa, jamiyat ham shunga xos bo'ladi. Bugungi kunda pedagog-o'qituvchi, talaba-o'quvchi pedagogikaning nima uchun kerakligini tushunishi, o'zlashtirib olishi va amaliyotda qo'llay olishi lozim.

Bugungi kunda hatto ba'zi aniq fanlar olimlari o'rtasida pedagogikaga ilm-fan sifatida qarash kerak emas chunki qat'iy belgilangan qonuniyatlar, formula va teoremlar bo'lmasa qanday ilm bo'lishi mumkin degan qarashlar paydo bo'lmoqda. Bu qarashlar umuman noto'g'ri. Pedagogika bu ilm. Pedagogikaning beshta asosiy qo'llanilishi bor. Bular; pedagogika amaliyot sifatida, pedagogika san'at sifatida, pedagogika muhandislik sifatida, pedagogika ilm sifatida, pedagogika fan sifatida deb e'tirof etish mumkin [4].

Pedagogik amaliyotda ta'lim va tarbiya bilan hayotda barcha insonlar shug'ullanadi. Lekin pedagogik mahoratga ega bo'lish hamma uchun emas. Pedagogik sistemalar, texnologiya pedagogik muhandislikka kiradi. Insonning shakllanishi, pedagogik qonuniyatlar bilan pedagogika ilmi shug'ullanadi. Pedagogika fanida biz asosiy qoidalar va ularni qo'llay olishni o'rganamiz. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika fanini o'tishdan maqsad talabalarda hayotga professional pedagogik qarashlarni